

# ODOBI OLTIN BOLA



087,5 SH 48

**Shermurod Tog'ay**

# Odobi oltin bola



*Bolalar uchun ibratli hikoyalar*

G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi

TOSHKENT — 2020


UO'K: 087,5  
KBK: 83,3 (50')  
Sh 48

*Mas'ul muharrir*  
**Shavkat Yusupov**

**Tog'ay, Shermurod.**

Odobi oltin bola: hikoyalar / Shermurod Tog'ay – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 72 b.

«Odobi oltin bola» kitobi qiziqqon va ziyrak bolalar bilan ularning bobo-momolari o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javoblar asosida tuzilgan bo'lib, bu kitobdan farzandlarimiz ota-onaga hurmat, odob-axloq, Vatanga sadoqat, savob, yaxshilik kabi milliy qadriyatlarimizni o'rganadilar. Bobo-momolar uchun esa mazkur risola nabiralariga hayot saboqlaridan o'gitlar berishda kichik bir dastur vazifasini o'taydi. Bu kitob voqeyiy hikoyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ulardan har bir o'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotlarni oladi.



ISBN 978-9943-6110-5-4

UO'K: 087,5  
KBK: 83,3 (50')

© Tog'ay Shermurod, 2020.  
© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2020.

## AHIL OILA

Umar ota hovlidagi gullarni parvarishlayotgan edi, oyisi bilan maktabdan qaytgan sakkiz yoshli Salim:

– Assalomu alaykum, bobojon, hormang! – deb, oldiga yugurib keldi.

– Va alaykum assalom, o‘g‘lim, salomat bo‘ling, – dedi bobo nabirasining peshonasidan o‘pib.


– Bobo, men ham sizga yordam beraman, – dedi Salim g‘ayrati ichiga sig‘masdan.

– Shunaqami, umringizdan baraka toping, unda tez kirib kiyimlaringizni almashtirib chiqing.

– Xo‘p bo‘ladi! – deb, Salim yugurib ichkariga kirib ketdi. Sal o‘tmay dadasi, amakilari ishdan kelib qolishdi. Umar otaga salom berib, ular ham darhol yordamga shoshilishdi. Ko‘pchilik bo‘lib, birpasda yerni chopib qo‘yishdi. So‘ng gullarga ishlov berishdi. Salimning opasi Tammano hovliga suv sepib, saramjon sarishtalikni boshlab yubordi. Chiqindilar to‘planib, yig‘ishtirib olindi. Ko‘pchilik bo‘lib ishlashning zavq-shavqi boshqacha-da! Bolalar o‘zlarini katta bo‘lib qolganday his qilishar, kattalar esa ularning yordamchi bo‘lib qolganidan xursand edilar. Kichkintoylar ham chug‘urlashib, qo‘llaridan kelgan «yordam»larini ayashmadi. Hovli chinniday bo‘lib, gullar yanada chiroy ochdi.

– Baraka toping, bolalarim, rahmat sizlarga. Birlikda, o‘zaro yordamda hikmat ko‘p. «Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar», degan dono xalqimiz. Men ikki-uch kunda bajarishni mo‘ljallagan ishni hamjihat bo‘lib, tezda bitirib qo‘ydingiz, – dedi farzandlarining g‘ayratidan, o‘zaro ahilligidan ko‘zlari quvnagan Umar ota. Keyin ularning haqiga duo qildi.

– Kecha maktabimizda ham katta hashar bo‘ldi, – dedi bobosini yana ham xursand qilish uchun Salim. – Ko‘pchilik bo‘lib gul ekdik,



yer chopdik, tevarak-atrofnı tozaladik. Hamma joy chiroyli va shinam bo'lib qoldi. Katta sinfda o'qiydigan akalarimiz bilan rosa ko'p ishlarni tezda tugatib qo'ydik.

– Ha, ahillikda gap ko'p, agar hamma bir-biridan yordamini ayamasa, bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilsa, har qanday og'ir ish ham yengil bo'ladi, – dedi Umar ota nabirasining boshini silab. – O'g'lim, ko'pchilikni ham bir binoga taqqoslash mumkin. Har qanday bino juda ko'p g'ishtlardan quriladi. Agar bitta g'isht kam bo'lsa ham, binoni mustahkam deb bo'lmaydi. Odamlar ham binoning g'ishtlari kabi bir-birlarini suyab turishlari lozim. Zaiflarga qo'ldan kelgancha yordam berish, muhtojlarning og'irini yengil qilish, bir-biriga to'g'ri yo'l ko'rsatish, har bir insonning burchidir. Salim bobosining bir odatini juda yaxshi ko'radi. Bobo gapining isboti uchun ajoyib rivoyatlar, ertaklar, maqol va matallar aytib beradi.

– Bobojon, qiziq hikoyalardan yana aytib bering, – dedi Salim erkalanib.

– O'zim ham shuni o'ylab turgandim, bolajonim! Qani, menga yaqinroq kelinglar deb, Umar ota gullarning o'rtasiga o'rnatilgan uzun kursiga o'tirdi. Bolajonlar bobosining atrofini o'rab olishdi. Bolajonlarning diqqatini o'ziga tortish uchun Umar ota shunday so'z boshladi:

– Men sizlarga insofli, rostgo'y, o'zining xushfe'l muomalasi bilan tanilgan bir saxiy tojir(savdogar)ning boshiga tushgan sinovni hikoya qilib bermoqchiman, diqqat bilan tinglanglar. Shunday qilib, insofli, savdoda halol, ozgina foydaga ham qanoat qiladigan, hech qachon birovlarini aldamaydigan bir tojir bo'lgan ekan. Molidan kambag'al, muhtojlarga yordam berish uning odati ekan. Ana shunday saxiyligi sabab uning moliga baraka kirib, kundan kunga ko'proq foyda keltirar ekan. Uning saxovatpeshaligi bois turmushi yaxshilanib borayotgan kambag'allar esa uni maqtab, haqiga duolar qilisharkan. Taqdir taqozosi bilan u yashaydigan shahar aholisining turmushi og'irlashib qolibdi. Shunda oqsoqollar yig'ilib, tojirning oldiga kelishibdi va:



– O‘g‘lim, shahardagi ahvoldan xabaring bor. Xalqning ahvoli kundun kunga og‘irlashib bormoqda. Sendan iltimos tezroq kema hozirlab, yo‘lga tushmasang, bo‘lmaydi, – deyishibdi. Ularning gapini ikki qilolmagan tojir ulkan kema hozirlabdi va shaharning safarga eng sara ishblarmonlarini jalb qilibdi. Ishblarmonlarga oq yo‘l tilab, ularni kuzatib qo‘yibdi. Kema ishblarmonlar ko‘zlangan manzilga yetib zarur mahsulotlarni yuklab, qaytib kelayotganda, dengizda kuchli to‘fon ko‘tarilibdi-yu, kema butun mollari bilan suvga g‘arq bo‘libdi. Bu mudhish hodisadan xabar topgan tojir:

– Parvardigorim, menga mol-dunyo berding, shukrimni aytdim. Kerak ekan, qaytarib olding, bunga ham shukur, – deb sabr qilibdi. Bu xabardan shaharliklarning ko‘ngli cho‘kibdi. Hamshaharlariga yaxshilik qilaman deb, boyligidan ajrab qolgan tojirning oldida o‘zlarini aybdor his etishibdi. O‘zlarining yiqqan-terganlarini tojirning oldiga olib kelib, unga dalda berishibdi va yana bir marta kemani yo‘lga chiqarishini so‘rashibdi. Ularning daldasidan xursand bo‘lgan tojir yana kema hozirlab, safarga jo‘natibdi. Bu safar kemadagilar sog‘-salomat manzilga borib kelishibdi. Ular olib kelgan oziq-ovqat mollari sababli xalq qiyinchilikdan xalos bo‘libdi. Tojir sotilgan mollardan tushgan foyda tufayli qarzlardan ham qutulibdi. Parvardigor ikki tomonning ham mushkullarini oson qilib, yurtga baraka yog‘diribdi.

Ko‘rdinglarmi, bolajonlarim, hamjihatlik ana shunday narsa. Birgalikda qilingan ish har doim unumli bo‘ladi. Ahil oilaga, mustahkam qo‘rg‘onga hech kim raxna sololmaydi.

– Agar biz birlashib harakat qilsak, ahil bo‘lsak, bir-birimizga yordam bersak, ko‘p ish qilish bilan birga savob ham olarkanmizda, a bobojon? – dedi Salimning akasi Abduhalim.

– Xuddi shunday! Asalarilarga e‘tibor beringlar, ahil, hamjihat bo‘lib, zarra-zarralardan qancha-qancha asal yig‘ishadi. Chumolilar ham shu. Yuzlab chumolilar birgalashib inlarini don-dunga to‘ldirishadi. Shuning uchun yaxshi ishlarda bir-biringizga yordam bering, hamkor bo‘ling, ammo gunoh ishlarda hech kimga hech qachon yordam bermaslik kerak.



– Gunoh ishlar yomon-a, bobo? – dedi Salim.

– Ha, o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, manmanlik, Vatanga xiyonat, kabi ishlar katta gunohdir. Bunday ishlarni birgalikda, maslahatlashib qilish undan ham yomon jinoyat. Chunki ko‘pchilikning yomon ishidan ko‘p odam zarar ko‘radi, azob chekadi. Shuning uchun yana takrorlayman, yaxshi ishlarda bir-biringizga yordam berib, yomon ishlardan qaytaring. Gunohkor, tarbiyasiz, dilozor boladan ota-onasi, ustozlari – hech kim rozi bo‘lmaydi. Shuning uchun aslo gunohga qo‘l urmang. Endi hammalaringizga ruxsat. Menga yordam berganlaringiz uchun katta rahmat. Ilohim, umrlaringiz uzoq, baxtli-sodatli bo‘lib, ota-onangizning quvonchi, yurtimizning suyanchi bo‘lib yuringlar, – deb yuziga fотиha tortarkan, odob bilan o‘rinlaridan turib ketayotgan nabiralarning ortidan ko‘zlari quvonib qarab qolgan Umar ota: «Ilohim, ko‘z tegmasin», deb qo‘ydi.





## XAYRLI ISH

«**H**ikmatlar kitobi»ni o‘qib, mulohaza qilib o‘tirgan Fotima ayaning oldiga uchinchi sinfda o‘qiydigan nabirasi Zaynab kelib, buvisining yelkalariga qo‘llarini qo‘ydi-da:

– Buvijon, nimalarni o‘qiyapsiz? – dedi erkalanib.

– «Hikmat»lar kitobida xayrli ishlar to‘g‘risida juda yaxshi gaplar yozilgan ekan, shularni o‘qib o‘tiribman, – dedi Fotima aya Zaynabning yuzidan o‘pib suyarkan.

– Xayrli ish qanaqa bo‘ladi, buvijon? – deb so‘radi Zaynab qoshlarini uyib, jiddiy ohangda.


– Xayrli ishning turlari ko‘p, tabibning kasalni davolashi, o‘qituvchining bolalarga ta‘lim-tarbiya berishi, ilm o‘rganish va o‘rgatish, faqirlarga xayr-ehson qilish, kattalarning yoshlarga, yoshlarning kattalarga yordam berishi, shifoxona, yo‘l va bog‘chalar qurish, mevazor bog‘lar, gulzorlar yaratish... Eh-he, xayrli ishlarining chek-chegarasi yo‘q.

– Men ham xayrli ish qila olamanmi?

– Albatta, qila olasan. Agar sen yaxshi o‘qisang, bu xayrli ishlarining boshlanishi bo‘ladi. Puxta bilim olib, aytaylik, shifokor bo‘lsang, bemorlarni davolab yaxshilik qilasan, muallim bo‘lsang, qancha-qancha bolalarni ilmi, hunari bilan yurtimiz rivojiga hissa qo‘shadigan insonlar qilib tarbiyalaysan. Shuning uchun bolalarning yaxshi o‘qishi katta savob va xayrli ishlardan sanaladi.

– Demak, ko‘p o‘qishim, uy vazifalarini yaxshi bajarishim kerak ekan-da?!

– Har bir oqil kishining farzandi, o‘g‘ilmi, qizmi, kim bo‘lishidan qat‘i nazar, o‘z vazifasini puxta bajarishi kerak. Hatto odamlarning o‘ziga yuklatilgan ishni sidqidildan bajarishi ham xayrlidir. Misol uchun, quruvchi o‘zi qurayotgan binoda ko‘plab odamlar yashashini, agar uyni yaxshilab qursa, unda yashaydigan odamlarning duosini olib, ajr-savoblarga ega bo‘lishini o‘ylab, pishiq-puxta, sifatli imoratlar qurishi kerak. Yoki mashinalarni





tuzatadigan ustalarning ishini olaylik, mashinalarni yaxshilab sozlashsa, odamlar o‘z manziliga qiynalmay, tezda yetib olishadi. «Hunar hunardan unar», «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan maqollarni eshitganmisan?

– Yo‘q. Qanday qilib bitta odam qirqta hunar o‘rganishi mumkin?

– Senga bir voqeani so‘zlab berayin, quloq sol! Bahriddin degan bir qo‘shnimiz bo‘lardi. Aytishlaricha, u o‘smirlik paytida rom yasaydigan ustaga shogird tushib, tezda bu hunarni o‘rganib olibdi. So‘ng arava yasash, g‘isht terish, suvoq, tomlarning ustini yopish, qassoblik va oshpazlik kabi hunarlarni ham egallabdi. Hech tinib-tinchimas, serg‘ayratligi bois, oilasi tinch va to‘q yashardi. Qo‘ni-qo‘shnilarga yordam berishga doim tayyor edi. Bu odamning hovlisiga hammaning havasi kelardi. Shogirdlari ham ko‘p edi. Uning hamma ishi xayrli va savob ishlar ekan. Shuning uchun sen ham maktabdan kelganingdan keyin, bo‘sh paytlaringda tikuvchilik, pazandachilik, to‘qish kabi hunarlarni o‘rganib borsang, hayotda qiyinchilik ko‘rmaysan, qiynalmaysan. Dangasa bo‘lsang, o‘zingga ham, boshqalarga ham zarar, hayotda qiynalib qolasan. G‘ayratli bo‘lsang, qanchadan qancha odamlarga yordaming tegadi, bu ham xayrli, savob ishlardan bo‘ladi, qizim.

– Buvijon, shifokorlar kasallarga dori yozib beradi, ukol qilib qo‘yadi, unchalik qiyin emas-ku! Shifokor bo‘lsammikan?

– Shifokor bo‘lish sen aytganchalik oson emas. Uning ming xil sirlari, mashaqqatlari, mas‘uliyati bor. Shifokor bo‘lish uchun faqat ilmning o‘zi kifoya qilmaydi. U shirinso‘z, mehribon, halol, o‘z ishining ustasi bo‘lishi kerak. Ba‘zi paytlarda bir og‘iz shirin so‘zning o‘zi dardlarga malham bo‘ladi. Bir og‘iz shirin so‘z bilan dunyodan umidini uzgan bemor hayotga qaytadi, – dedi Fotima aya va biroz tin olgach, yana so‘zida davom etdi:

– Oh, qizim-a! Senga bir voqeani aytib beray: bir bemorning ko‘richagi yorilib, og‘ir jarohlik amaliyotidan chiqibdi. Muolajaning uchinchi kuni yaralarni tekshirish uchun yangi kelgan yosh do‘xtir qiz uning yarasiga qarab, yuzlarini burush-

tirib: «Voy-bo‘, yarasi yiringlab ketibdi-yu, bemorni bu yerdan tezda olib chiqib ketinglar, kasali qolganlarga ham yuqmasin! – debdi. Keyin hamshiraga qarab: – Yarasi tuzaladimi, yo‘qmi, Xudo biladi, – debdi. Bu gaplarni eshitib turgan bemorning, ko‘ngli qattiq cho‘kibdi. Shunda keksa bemorlardan biri: «Kasal odamga ham shunaqa deysanmi, qanaqa shifokorsan o‘zi?» deb koyib beribdi. Kasalning yuragiga so‘zlari bilan xanjar sanchgan shifokor qiz beparvogina xonadan chiqib ketibdi. Hamxonalari xafa bo‘lib qolgan bemorga har xil gaplar bilan tasalli berishga harakat qilishibdi, lekin uning ko‘nglini ko‘tara olishmabdi. Chunki bemor: «Nahotki, tuzalmasam?» deb butunlay umidsizlikka tushib bo‘lgan ekan. Shunda bemorlardan biri bosh shifokorning oldiga chiqib, voqeani gapirib beribdi. Bosh shifokor tezda bemorning oldiga kelib, yarani ochib ko‘rib:

– Do‘stim, hech xafa bo‘lmang, ko‘richagi yorilib ketgan bemorlarning aksariyati mana shu holatga tushadi. Jarrohlik amaliyoti vaqtida ichaklarni maxsus dorilar bilan yuvganmiz. Faqat davolanish biroz cho‘ziladi, xolos. Hech xavotir olmang, sizga o‘xshagan bir nechta bemorlarimiz bor, hozir sizni ularning oldiga olib tushamiz. Yaqinda otdak bo‘lib ketasiz, – debdi. Bu so‘zlardan ko‘ngli ko‘tarilgan bemor bir necha kun davolanib, tuzalib chiqibdi. Ko‘rdingmi, shifokorning shirinso‘z bo‘lishi qanchalik muhim ekan. Men senga aytsam, qizalog‘im, shirinso‘z odam har kuni, har qadamda savob oladi. Chunki u birovning dilini og‘ritmaydi, yaxshi so‘zlari bilan odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlaydi. O‘zining shirinso‘zligi bilan odamlarni yomon yo‘ldan, xato ishlardan qaytarib qolishi ham mumkin. Shuning uchun boyligim ko‘payganda, vaqtim bo‘lganda yoki ulg‘ayganimda yaxshilik qilaman, savob olaman, deb yurish noto‘g‘ri. Mana sen hozir mening nasihatlarimni eshitib o‘tiribsan, bu ham savob. Chunki odob qoidalarini o‘rganib, ularga rioya etishni niyat qilgansan. Eshitganlaringga amal qilsang, yana ham ko‘p savob olasan.

– Buvijon, siz bo‘sh qolishingiz bilan qiyqimlarni bir-biriga ulab, dasturxon, yostiqlik jildlar tikib o‘tirasiz-ku... buyam savob ekan-

da? – dedi Zaynab buvisining yonida turgan tugunchaga ishora qilib.

– Bo‘lmasam-chi, avvalo, mayda qiyqimlarni isrof qilmasdan, kerakli narsa yasab olganing foyda. Umrini, vaqtini foydasiz mashg‘ulotlarga sarflaydigan bekorchi, dangasa odamlar hech kimga yoqmaydi. Shuning uchun bo‘sh paytimda bekor o‘tir-mayman.


– Shu ishni men ham qila olarmikanman? – ikkilanib so‘radi Zaynab.

– Qunt qilib, harakat qilsang mendan ham mohirroq tikuvchi bo‘lasan! Qani, qizalog‘im, beriroq kelib, yonimda o‘tir-chi! – dedi buvisi Zaynabni erkalab.

Zaynab shu kundan boshlab buvisidan tikish-bichish sirlarini o‘rgana boshladi.







## ODOBI OLTIN BOLA

**Sh**aharning ko'p qavatli uylaridan birida yashaydigan Ahmad qishloqdagi bobosinikiga mehmonga bordi. Erta tongda dalaga otlanayotgan bobosidan: «Men ham borsam bo'ladimi?» deb so'radi qiziqib. «Albatta!» dedi bobosi va uni o'zi bilan birga olib ketdi. Paxta, makkajo'xori ekilgan ko'm-ko'k maydonlar juda chiroyli, yashnab turardi. Ahmadning bobosi dala chetidagi shiypon atrofiga atirgullardan tortib, rayhon-u jambillargacha, sal chekkaroqda bodring-u qovun-tarvuzlargacha ekib, ajoyib bog'cha yaratgan.

Ahmad bobosiga yordam berarkan, daraxtga in qurgan chumchuqqa ko'zi tushdi. Chumchuq uchib ketar, saldan keyin tumshug'ida nimalarnidir olib kelib, og'izlarini ochib, chug'urlashayotgan polaponlarining og'ziga solar, so'ng yana uchib ketardi. Ularni zavq bilan kuzatib turgan Ahmad bobosidan:

– Bobojon, anavi chumchuq og'zida nima olib kelyapti? – deb so'radi.

– U ona chumchuq. Chigirtka, pashsha kabi hasharotlarni tutib kelib, bolalarini ovqatlantiryapti, – deb javob berdi bobo javdirab tikilib turgan nabirasining boshini silarkan.


– Nega ularni o'zi yeb qo'ymaydi?

– Eh, bolajonim-a, – deb kuldi bobo, – axir u ona-ku! U ham xuddi inson kabi bolalariga mehribon. Barcha onalarning bolalariga nisbatan g'amxo'rliqi beqiyosdir.

– Bobojon, g'amxo'rliqi nima degani? – so'radi Ahmad.

– G'amxo'rlik, rahmdillik, mehribonlik degani. Ya'ni hamma onalar – barchasi o'zi dunyoga keltirgan bolalariga mehribon. Ularni asrab-avaylab o'stiradi. Onalar shirinso'z, mehribon bo'ladi, topganini bolasiga tutadi. Farzandiga nima foyda-yu, nima zararliligini yaxshi biladi, undan mehr-muruvvatini ayamaydi. Masalan, oying sen uchun ovqat pishiradi, kiyimlaringni yuvib dazmollaydi, boshingni silab, bag'riga bosib erkalaydi. Har qanday sho'xliklaring, injiqliklaringni kechiradi. Mana shu g'amxo'rlik bo'ladi. Endi hayvonlarga e'tibor ber. Televizorda ko'rgansan,

INVENTAR 2021/7-29  
D.Y.K.G. AxM



hatto bahaybat fil, yirtqich sher kabi hayvonlar ham o'zi tuqqan bolasini yalab-yulqaydi. O'zi och qolsa ham, bolalarining qornini to'ydiradi.

– Bobojon, bobo! Mushugimizning uchta bolasi bor. Ularni yalab-yalab, pinjida uxlatadi.

– Ko'rdingmi, mushuging ham bolasiga mehribon. Tovuq, g'oz, o'rdak, xullas, hamma parrandalar ham xuddi shunaqa. Bolasini bir parcha etligidan issiq bag'rida katta qiladi, xavf-xatardan himoya qiladi. Onalar shunaqa, shuning uchun hech qachon onangni xafa qilmagin, xo'pmi?

– Xo'p bo'ladi, hecham xafa qilmayman.

Ahmad shunday dedi-yu, shu payt qalbida onajonisiga nisbatan allanechuk sog'inch his qildi. Bobosi Ahmadning qo'lidan ushlab, shiypon ichiga qo'yilgan so'ri tomon boshladi.


– Biz charchasak, biror narsadan norozi bo'lsak, doim «uf» deymiz, shunda oyim «Hech qachon «uf» demagin», deb koyiydilar. Bobo, nima uchun «uf» deb bo'lmaydi?

– «Uf» degan so'zni biror narsadan bezor bo'lgan, dangasa, ishyoqmas odam aytadi. Agar ota-onangning oldida uf tortsang, ular «Bolamizga og'irligimiz tushdimikan, bizdan bezor bo'ldimikan», deb o'ylashlari mumkin. Shuning uchun ularning oldida aslo uf tortmaslik kerak. Bu so'z norozilik ma'nosini ham anglatadi. Oqil farzand aslo uf tortmasligi kerak. Chunki u odobsizlik hisoblanadi. Ayniqsa, onalarning oldida bu so'zni aytmaslik, aksincha ularni nihoyatda ulug'lab, hurmat qilish kerak.

– Nima uchun?

– Chunki onalar farzandlari uchun jonlarini ham fido qiladilar. Bir parcha etni katta qilish uchun qancha-qancha tunlarini bedor o'tkazadi. Farzandim sog'lom o'ssin deb, oq yuvib, oq tarab avaylab, ardoqlab parvarishlaydi. Onalarning xizmatini sanab, ado etib bo'lmaydi. Sen ko'proq kimga sho'xlik qilasan, dadanggami, oyinggami?

– Oyimga. Dadamdan cho'chib turaman, biror nojo'ya ish qilib qo'ysam, qulog'imdan cho'zadilar.



– Lekin oyim indamaydilar deb, erkalikni haddan oshirish yaxshimas. Sen endi katta bo‘lib qolding, ota-onangning eng katta yordamchisisan. Ularning aytganlarini bajarishga og‘irini yengil qilishga o‘rgan. Gohida bolalar ota-onasining aytganini qilmasdan ko‘chaga chiqib ketsa, kitob o‘qimasa, darslarini o‘z vaqtida bajarmasa, onalarning ko‘ngli ranjib qoladi. Ota-onasining aytganini qilmaydigan bolalardan hamma g‘azablanadi. Ota-onasini norozi qilgan, dilini og‘ritgan bolalar katta bo‘lganda ham ishi yurishmaydi, omadsiz bo‘ladi. Aqlli farzand ota-onasini hurmat qilib, ularning duosini olishga harakat qilishi kerak.

– Ota-onamizning duosini olsak, yaxshi ekanda?

– Baxtli hayot kechirishni, uzoq umr ko‘rishni xohlagan farzand ota-onasi xursand bo‘ladigan ishlarni bajarishga, ularning nasihatlariga amal qilishga intiladi. Chunki ota-ona hech qachon farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Hozir sen maktabda o‘qiyapsan. Ota-onang qaysi ishingdan ko‘proq xursand bo‘lishadi?

– Bilmadim.

– Bilib qo‘y, agar sen yaxshi o‘qisang, odobli bo‘lsang, ular xursand bo‘lishadi. Sen yaxshi o‘qib, olim bo‘lsang, el-u yurtning duosi va rahmatini olsang, mana shu sening ota-onangga qilgan eng katta xizmatning bo‘ladi. Bundan ularning ko‘ngillari shod bo‘ladi. Yaxshi o‘qimasang, biror hunar o‘rganishga intilmasang, ustozlarni xafa qilsang, xulqingdan atrofdagilar norozi bo‘lsa, ota-onangning xizmatini, hurmatini qilmagan bo‘lasan. Shuning uchun yoshlikdan ko‘proq ilm olib, aqlingni charxla. Shunda ota-onang, ustozlaring sendan rozi bo‘ladi, xursand bo‘ladi. Qolaversa, o‘zingdan yaxshi nom qoldirasan, kelajak avlodga o‘rnak, namuna bo‘lasan.

– Demak, otaning aytganlarini so‘zsiz bajarish kerak ekan-da. Shunaqami bobojon?

– Ha, albatta ota farzandiga biror ish buyursa, so‘zsiz bajarish lozim. Shuningdek, bolalar ertalab uyqudan turganda yuz-qo‘llarini yuvishi, maktabdan yoki biror boshqa joydan kelganda uydagilar-

ga «Assalomu alaykum», deb kirishi lozim. Ota-onaning ko‘ziga tik boqmasligi, ovozini ko‘tarib, gap qaytarmasligi, o‘tirishga ruxsat bermaguncha, odob bilan tik turishi, ovqatdan oldin va keyin qo‘llarini yuvishi, taomga ota-onasidan oldin qo‘l uzatmasligi, dasturxonga duo qilmaguncha turib ketmasligi, ularning oldida yonboshlab yoki oyog‘ini uzatib yotmasligi, otasi o‘rnidan turmasdan oldin turmasligi, o‘tirmasidan oldin o‘tirmasligi, dam olish uchun yotganda bezovta qilmasligi kerak.

– Dadam bilan biror joyga borganda-chi?

– Ha, yaxshi gap boshlading. Dadang bilan yo‘lda birga yursang, oldinga o‘tib ketma, orqada ham qolib ketma. Bir qadam orqada yoki yonlarida yurgin, bu ishlar dadangga bo‘lgan hurmatingni oshiradi, ilming ziyoda bo‘ladi.



– Albatta, siz aytgandek, ota-onamni xursand qilib, ularning hamma aytganlarini bajarib, roziligini olaman. Ota-onamni, ustozlarimni ham ranjitmayman.

Ahmadning chin dildan gapirayotgani yuz-ko‘zlaridan ko‘rinib turardi.

– Barakalla, o‘g‘lim! Umring uzoq bo‘lsin. Qani, endi ishni davom ettiraylik. Ahmad bobosining nasihatlarini yana bir-bir ko‘nglidan o‘tkazgancha, shiypon atrofidagi gullarning tagini havas bilan yumshata boshladi.

Bobosi: «Ota-onang sen bilan faxrlanadigan, el-yurt koriga yaraydigan, ardoqli inson bo‘lgin, odobingdan oltin top, bolam», deb duo qilardi.







## KAMSITISHDAN SAQLAN!

Yakshanba – dam olish kuni Abbas otanikiga nabiralari mehmon bo‘lib kelishdi. Birga tushlik qilib o‘tirishganda, katta nabirasi Nurmuhammad:

– Sinfdoshim Behzod sumkasiga non solib boradi. Keyin tanaffus paytida yuvilmagan qo‘li bilan nonni olib yeydi, – deb qoldi.


Bu gapni eshitgan boshqa bolalar: «Iyy, oyisi o‘rgatmagan ekanda», «Hammaning oldida kavshanib yuradimi?», «Ko‘chada qancha narsani ushlab keladi, qo‘lini yuvmasdan non yesa, ichiga mikroba kiradi-ku», degan gaplar bilan muhokama qilishga tushib ketishdi. Ularni kuzatib o‘tirgan Abbas ota vazmin ohangda so‘radi:

– Nurmuhammad, o‘sha o‘rtog‘ingga qo‘lni yuvmay ovqat yemaslik kerakligini aytganmisan? Sening vazifang – biror noto‘g‘ri ishni qilgan odamni ko‘rganda ogohlantirish, bilmagan narsasini aytib qo‘yish. Bu narsalarni boshqa joylarda tarqatib yurish esa g‘iybat gunoh, bo‘ladi. O‘zi yo‘q odam haqida gapirilmaydi. Xo‘sh, boshqalar-chi? Do‘stlaringizdan biri bilib-bilmay xato qilib qo‘ysa, nima qilasizlar?

«Nasihat qilamiz», «Yaxshilikka chaqiramiz», deya bolalar birin-ketin javob berishdi.

– Bu ishlaring to‘g‘ri! Bir insonning orqasidan g‘iybat qilish katta gunoh. Uning ko‘nglini og‘ritish, boshqalarning o‘rtasida obro‘sini to‘kish, hasad qilish yaxshi emas. Tilini g‘iybatdan, yomon so‘zlardan tiymagan insondan hech kim xursand bo‘lmaydi. Ilmli, oqil inson hech kimga yomonlikni ravo ko‘rmaydi.

Dilingizga mahkam tugib olinglar, o‘tgan ulug‘ bobo-kalonlarimiz, donishmandlar nihoyatda shirinso‘z, go‘zal xulqli bo‘lishgan. Agar ular qo‘pol, yomon odam bo‘lganlarida bunchalik buyuklikka erisholmagan, tarix kitoblaridan joy olmagan bo‘lishardi. Navoiy bobomiz, Ibn Sino, Beruniy kabi ulug‘ ajdodlarimiz ilmda, odobda tengsiz bo‘lishgan. Birovni masxara qilib, ustidan kulish, odamlarga laqab qo‘yib, kamsitish kabi illatlar ularga begona bo‘lgan. Kattalarga hurmatda, kichiklarga



izzatda bo‘lishda hammaga o‘rnak bo‘lishgan. Biz ana shunday ulug‘ zotlarning avlodlarimiz. Shunday ekan, ilmda, odob-axloq va go‘zal muomalada biz ham boshqalarga namuna bo‘lishimiz kerak.

– Laqab bilan chaqirish ham mumkin emasmi? – dedi Nozima.

– Axir odamlarning bir-birlarini falonchi «cho‘loq», «cho‘tir», «uzun», «laylak», deb chaqirganlarini eshitganmiz-ku?

– Hammamizni Xudo yaratgan, kimdir oqsoq, yana kimdir uzun bo‘yli yoki pakana bo‘lsa, buning uchun ular aybdor emas-ku. O‘zining nuqsonidan shundog‘am siqilib yurgan odamni laqab bilan chaqirsangiz, ko‘ngli og‘riydi, masxara qilsangiz, xafa bo‘ladi. O‘rtada dilxiralik paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham bu eng katta gunohlardan biri hisoblanadi.

– Ba‘zilar sal zaifroq bolalarni o‘rtaga olib, turtib, masxara qilishadi. Bu ishlar-chi? – dedi Sayyora.

– Nojo‘ya ishlarni qilish uchun bir joyga yig‘ilib, maslahatlashish, odamlarning tinchligini buzish uchun o‘zaro shivirlashib, qabih rejalar tuzish juda yomon ishdir. «Kichkinalarni qo‘rqitamiz», «Kuchsizroq bolalarni masxara qilib, kulamiz», degan maslahatlarni qilish va bu ishlarni amalga oshirish ham eng odobsiz bolalarning ishidir.

– Bobojon, – dedi sekin Nurmuhammad, – ayrimlar hech kimga laqab qo‘ymasa ham, ba‘zan shunaqa gaplarni eshitganda, bolalarga qo‘shilib kuladi. Demak, bu ham noto‘g‘ri ekan-da?

– To‘g‘ri xulosa chiqaribsan, – deb ma‘qulladi bobo. – Bundan buyon har biringiz mendan eshitganlaringizga amal qiling va o‘rtoqlaringizga ham bu gaplarni tushuntiring. Aslo birovning ustidan kulishmasin, hech kimni masxara qilishmasin, xo‘pmi?

Ota bir narsa yodiga tushgandek, soatga qaradi-da, asta o‘rnidan turdi. Bolalar hurmat bilan bobolariga yo‘l bo‘shatishdi.



## YO'L ODOBI

Maktabdan qaytgan Said eshikdan shoshib, halloslab kirib keldi. Ko'rinishidan nimadandir bezovtadek edi. So'rida kitob o'qib o'tirgan dadasini ko'rdi-yu, birdan:

– Assalomu alaykum! – dedi.


– Va alaykum assalom, maktabdan yaxshi keldingmi, o'qishlaring yaxshimi? Yuzing oqarib ketibdi, tinchlikmi, nimadan bezovtasan? – dedi dadasi hansirab turgan o'g'liga tikilib. Saidning tomog'iga bir narsa tiqildi, ko'ziga halqa-halqa yosh keldi. Lekin shu zahoti bobosining «O'g'il bolaga yig'lash yarashmaydi», degan gapi yodiga tushib, o'zini tutib oldi. So'ng undan ko'zini uzmasdan, javob kutayotgan dadasiga qarab, tushuntira boshladi:

– Maktabdan kelayotgan edim, yo'lning chetidagi daraxtlarning ostida to'rt-beshta bola yig'ilib, baqirib-chaqirib, yo'ldan o'tayotgan har bitta bolani masxara qilishayotgan ekan. Bittasi boshimdagi do'ppimni olib, o'rtog'iga otdi. Unisi boshqasiga otib, rosa ustimdan kulishdi. Axir men ularga hech narsa qilganim yo'q-ku? Yana... hammasi mendan ancha katta bolalar. Ularning shu ishi to'g'rimi?

– Albatta, noto'g'ri. O'zidan kichiklarni masxara qilish, yo'lovchilarga ozor berish hech bir odobga to'g'ri kelmaydi. Bu yo'l odobini bilmaganlarning ishi, – dedi dadasi. Said bunaqa gapni ilgari eshitmagandi.

– Yo'lning ham odobi bo'ladimi? – dedi u hayron bo'lib.

– Ha, yo'lning ham odobi, haqi bor. Birinchidan, yo'l – bu xalq mulki, davlatning yeri. Yo'l bir yoki bir necha kishining shaxsiy mulki emas. Yo'llar davlat tomonidan odamlarning bemalol yurishlari, yumushlariga xotirjam borib kelishlari, mashinalar qatnovi uchun ajratiladi. Odamlar foydalanishi, dam olishi uchun yo'llarning chetiga o'rnatib qo'yilgan o'rindiqlarga o'tirib olib, o'tgan-ketganning ustidan kulib, odobsizlik qiladiganlarni yaxshi farzand deb bo'lmaydi. O'sha bolalar yo'l odobini bilmaydi, o'g'lim!



– Yo‘llarga yaqin qilib, hatto yo‘lning ustigacha chiqarib uylar qurish-chi, bu ham odobsizlikmi? – yana so‘radi Said.

– Ko‘chamizning boshidagi Ne‘matillo amaki bor-ku, o‘shaning uyi oldida ikkita mashina tiqilib qolib, bir-biriga tegib ketishiga oz qoldi. Haydovchilar: «Insofsiz, ko‘chaga ham uy solasanmi?!» deb baqirib ketishdi.

– Ana ko‘rdingmi? O‘sha yo‘llardan yurganda qiynalgan odamlarning dili ranjiydi. Shuning uchun davlat mulki hisoblangan yo‘llarning bir qarichiga ham aslo ko‘z olaytirmaslik kerak. Bu katta gunoh bo‘ladi, o‘g‘lim.

– O‘sha bolalarning oldidan o‘tishga ko‘pchilik qo‘rqadi. Ular hammani qo‘rqitib qo‘yishgan. Koptok ko‘tarib chiqsak, koptogimizni tortib olishadi.

– O‘g‘lim, qo‘rqma, men ularning, ota-onasiga tushuntirib qo‘yaman.

– Ba‘zida kechqurunlari ko‘chadan baqir-chaqir ovozlar keladi. Ularning ishi to‘g‘rimi? – deya yana savol berdi Said.

– Albatta, noto‘g‘ri! O‘sha baqir-chaqirlari bilan odamlarning tinchini buzadiganlar, asosan, vaqtning qadriga yetmaydigan yoshlardir. Ular ham yo‘lning haqini bilishmaydi. Ayniqsa, hamma uxlashga yotgan paytlarda ko‘chada o‘tirib olib, odamlarni bezovta qilish, ularga ozor berish ko‘channing haqiga xiyonatdir. Senga bir nechta yo‘l qoidasi to‘g‘risida aytib beray. Yaxshilab eshitib, o‘rganib, ularni hayotga tatbiq etishing, o‘rni kelganda boshqalarga ham o‘rgatishing lozim.

Avvalo, bekorchilikdan ko‘chada o‘tiradigan katta-yu kichik odamlar uchun bir nechta shartlar bor. Ulardan biri «ko‘zni tiymoq». Bu yo‘lda o‘tirib olib, ko‘chadan o‘tib borayotgan yo‘lovchilarga yomon ko‘z bilan qaramaslikdir. Turli behayo gaplarni gapirish gunohdir. O‘zimiz uchun yaxshi ko‘rgan narsani boshqalarga ham munosib ko‘rishimiz kerak. O‘zimiz yomon ko‘rganni o‘zgalarga ham aslo ravo ko‘rmasligimiz lozim. Ba‘zan, yoshlarning ertadan kechgacha yo‘l ustida gaplashib o‘tirganlarini ko‘ramiz. Ko‘chadan o‘tganlarga noqulaylik tug‘dirish bilan birga, ularning qichqiriqlari,

bema'ni hazil-huzullari yo'lovchilar, ayniqsa, xotin-qizlarning ko'nglini qoldiradi. Ular keyingi safar o'sha yo'ldan yurishga uyalishadi, bema'ni gap-so'zlardan dillari og'riydi. Bunday baqir-chaqirlar bilan odamlarni ranjitish ham tarbiyasizlikdir.

Ikkinchisi – o'zgalarga ozor berishdan saqlanish kerak. Odamlarning molini zo'rlik bilan tortib olish, bir-birini haqoratlash, kamsitish, insonlar xavfsizligini saqlash uchun qo'yilgan svetofor chiroqlariga rioya qilmaslik, o'rnatilgan yo'l belgilarini qo'porish ham o'zgalarga aziyat yetkazish hisoblanadi. Jamoat joylarida baqirib kulish, o'rindiqlar, o'yingohlardagi narsalarni sindirish, mumkin bo'lmagan joylarga axlat tashlash kabilar ham aziyatdir.

Yaqinda bir voqea sodir bo'ldi: bir haydovchi qizil chiroq yonib turgan paytda to'xtash o'rniga qoidaga rioya qilmasdan, piyodalar ustiga mashinasini hayday boshladi. Piyodalardan biri unga qo'l ishorasi bilan qizil chiroq yonib turganini ko'rsatib, to'xtashini so'ragan edi, haydovchi mashina derazasidan boshini chiqarib, piyoda yo'lovchini haqoratlay ketdi. Bechora yo'lovchi esa xafa bo'lgancha sekin yurib o'tdi. Bu bilan haydovchi yo'ldan o'tayotgan insonning odamiylik haqiga xiyonat qildi va o'zi ham qarg'ish eshitdi. Bu haydovchi tomonidan piyodaga yetkazilgan katta aziyat edi.

Ikkinchi voqea: yana bir haydovchi svetoforning qizil chirog'i yonib turganda yurib ketayotgan edi, unga: «Qoidani buzmag», desam:

«Hech kim yo'q-ku. DAN xodimlari ham ko'rinmaydi», – dedi.

«Qoidaga rioya qilmaslik odobsizlik, manmanlik va davlat qonunlarini buzishdir Bu esa noto'g'ri», – dedim.

«Bu haqda hech o'ylab ko'rmagan ekanman», dedi haydovchi ham.

Ba'zi bir haydovchilar tezlikni nihoyatda oshirib, o'zining va o'z galarning hayotiga xavf soladi. Ayrim yosh haydovchilar bir-biridan o'tish uchun «uchirib» haydasa, boshqa biri sarxush holatda odam larga zarar yetkazadi. Yana biri yo'lda turgan yo'lovchilarning ustiga suv sachratib o'tsa, boshqasi changga



bulab ketadi. Bularning hammasi tarbiyasizlik va yo‘l haqiga xiyonatdir. Yana yo‘l odobini bilmaslik madaniyatsizlik va jamoatni mensimaslik hamdir.

– Ha, ustozlarimiz bu haqda ko‘p gapirishadi, har doim ehtiyot bo‘lib yurishni ham tayinlashadi, – dedi Said. Dadasi biroz o‘ylanib qoldi-da, keyin gapini davom ettirdi.

Dabdurustdan noxush bir voqiea sodir bo‘ldi. Qorong‘i tushdi, bir maromda ketib borayotgandik. Shu payt avtobusning oynasi qarsillab sindi, yo‘lovchilardan biri dod solib yubordi. Haydovchi shoshib, avtoullovni to‘xtatdi. Avtobusga tashqaridan kimdir tosh otgan ekan. Tosh oynani sindirib, yo‘lovchilardan birining boshiga tegibdi. Qiy-chuv boshlandi. Haydovchilar avtobusdan tushib, orqa tomonga yugurib ketishdi. Ancha vaqtdan keyin qaytib kelib, bizga shikoyat qilishdi:

– Bir bezori bola tosh otib, qochib ketdi. Qorong‘ida uni tutib bo‘lmadi. U oynaning narxi qanchaligini bilmaydi. Bu ham mayli, bir insonni jarohatladi, uning hayotiga zomin bo‘lishi ham mumkin edi. Shu insonning o‘rnida o‘zi bo‘lganida, nima qilardi?

Avtobusda o‘tirganlarning biri afsuslandi, kimdir qarg‘adi, yana birov insof tiladi. Bu qarg‘ish, duolar yo‘l odobini, inson qadrini bilmagan o‘sha bezoriga tegmaydi deysanmi? Biriniki bo‘lmasa, biriniki tegadi-ku. Bunday farzandlar o‘ziga ham, ota-onasiga ham la‘nat olib keladi. Birinchidan, o‘zgalarni hurmat qilish o‘zini va qonunni hurmat qilishdir.

O‘g‘lim, shuni yaxshi bilginki, yo‘lovchilarga qanday bo‘lmasin, aziyat yetkazish katta gunohdir.

– Mening o‘rtoqlarim ichida bunaqa ish qiladiganlari yo‘q, – dedi Said ta’sirlanib.

– Ustozining, ota-onasining gapiga kirmagan bolalar mana shunaqa bo‘ladi. Bu judayam achinarli hol. Ba’zida ko‘chalarda yo‘l belgilarining qo‘porib tashlanganini ko‘ramiz. Buning natijasida kimlardir falokatga uchrashi, jarohat olishi, hatto halok bo‘lishi ham mumkin. Bu ham odamlarga yetkazilgan aziyat hisoblanadi.

Ko‘cha qoidalaridan yana biri salom berganlarga alik olishdir. Bu katta-yu kichikka tegishli. Bir odam sizga salom bersa, uning salomiga alik olsangiz, o‘rtada do‘stlik,

yaqinlik, hurmat rishtalari bog'lanadi. Salomga alik olish mehr-muhabbatni paydo qiladi. Shuning uchun ko'cha-ko'yda tanish yoki notanish kishilar salom bersa, albatta, alik olish kerak. O'rtoqlaringga ham aytib qo'y. Salom bermaslik ham, salomga alik olmaslik ham yo'lning haqini ado etmaslik bo'lar ekan.

– Qo'shnimiz Hamdam amakiga-chi? Salom bersak, hech alik olmaydilar. Shuning uchun u kishiga salom bergimiz kelmaydi, – dedi Said aybdor ohangda.

– Siz salom bergan bo'lsangiz, demak, bo'yningizdagi qarzni uzgansiz. Alik olmagan odam o'zi gunohkor bo'ladi. Balki Hamdam amakining quloqlari yaxshi eshitmas. Yaxshi eshitadigan qilib salom berib o'taveringlar.

– Abdulhamid amaki-chi, keyingi ko'chaning boshida turadigan oppoq soqolli buva bor-ku, o'sha kishi doim bizlardan oldin salom beradi. «Umrlaring uzoq, baxtli, omadli, olim bo'linglar», deb duo qiladilar. O'sha amakini uzoqdan ko'rishimiz bilan darrov kiyimlarimizni to'g'rilab, sho'xlik qilmasdan, oldilaridan odob bilan o'tib ketamiz, – dedi Said.

– Nima, Abduhamid amakidan qo'rqasizlarmi? – dedi dadasi.

– Yo'q, qo'rqmaymiz, hurmat qilamiz. U kishi bizga doim yaxshi gapiradilar, lekin qandaydir haybatlari bor.

– Keksa, o'z o'rnini bilgan, hayoli insonlarda mana shunday xislatlar bo'ladi, o'g'lim!

– Ko'chaning qoidalari juda ko'p ekan-a? – dedi Said dadasidan eshitganlarini bir xayoldan o'tkazib olib.

– Ha, shunday! Ko'chaning haqlaridan yana biri, yo'lda birov yomon ish qilayotgan bo'lsa, uni yaxshi so'zlar bilan bu ishidan qaytarishdir. Bir kishining noto'g'ri amalini ko'rib, «Menga nima?» deb yomonlikdan yaxshilikka chaqirmasak, yuz burib ketsak, odamlar o'rtasida mehr-oqibat yo'qolmaydimi? Kattalar kichiklarga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, xatosini tushuntirishi, ilm-u ma'rifatga chaqirishi ularning insoniylik vazifasidir. Kichiklar esa o'zlaridan kattalarning so'ziga quloq solishlari, ularning duolarini olishga harakat qilishlari kerak. Ota-onalar, yoshi kattalar hech qachon o'z farzandlariga, yoshlarga yomonlikni ravo ko'rmaydi.

– To‘g‘ri, – dedi Said.


– Yaxshilikka chaqirish, yomonlikdan qaytarish hammaning vazifasidir. Senga yana bir misol: erta tongda ko‘chaga chiqsang, suvlar sepilgan, supurilgan bo‘ladi. Ko‘ksimizga muzday shamol tegib, tanamiz yayraydi. Toza, ozoda ko‘chalarni ko‘rganda qalbimiz ham quvnab ketadi. Suv sepib, supurgan kelin va qizlarning haqiga duo qilamiz. Ularning bu ishlari ham ko‘chani haqiga rioya qilish hamda savob ishdir.

O‘g‘lim, «Pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa, birovga», degan maqolni eshitganmisan? Birovga ozor bermoqchi bo‘lgan odam uning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rsa, yomonlikdan to‘xtashi osonroq va tezroq bo‘ladi.

Ko‘cha haqiga rioya qilmayotganlarning kasriga qolayotgan yoshlar ham uchraydi. Bir tanishimiz qo‘shimcha dars olishi uchun o‘g‘lini ustozga beribdi. Ota farzandi nimani xohlasa, hammasini tayyorlab beribdi. Onasi eriga sezdirmasdan, o‘g‘lining cho‘ntagiga pul solib qo‘yarkan. Ammo tekin, mo‘may pul bolani yo‘ldan ozdiribdi. O‘g‘il avvaliga yaxshi o‘qib yuribdi. Keyinroq «O‘rtog‘imnikida dars qilib kelaman», deb chiqib ketib, kech qaytadigan bo‘libdi. U onasiga dars cho‘zilib ketganini bahona qilar, chet tilidan ba‘zi narsalarni o‘qib berar, hech narsaga tushunmagan ayol eriga o‘g‘lini maqtar ekan. Bundan xursand bo‘lgan ota ham uni jiddiy tekshirmas ekan.

O‘g‘il esa kechqurunlari bezori bolalar bilan ko‘p qavatli imoratlar atrofida o‘tirib, noma‘qul ishlarni o‘rganibdi. Sheriklari bilan birga mehnat qilmasdan boy bo‘lishning rejalarini tuzishibdi. Bir kuni yolg‘iz yashaydigan bir qariyaning uyiga o‘g‘irlikka tushib, bor narsasini olib ketishibdi. Bu ishlari bilan keksalarning qarg‘ishiga qolishgani aniq.

Oson boylik topishdan ruhlangan bezorilar sal vaqt o‘tib, ko‘cha va bozorlarda kissavurlik bilan shug‘ullana boshlashibdi. Ularning nafs bu ishdan ham qanoatlanmabdi. Kattaroq jinoyatni ko‘zlab, bir xonadonga bostirib kirganlarida qo‘lga tushib, uzoq yillarga qamalib ketishibdi. «Sayoq yurgan tayoq yeydi», degan



maqol ko'cha-ko'yda qimmatli vaqtini bema'ni ishlarga sarflab yurgan ana shunday bezorilar haqida aytilgan, bolam.

Ular ko'chaning haqini buzib, odamlarning qarg'ishini olishgan edi. O'sha razil ishlarining o'rniga sabr-qanoat bilan o'qib, biror hunarning etagini tutganlarida, halol mehnat bilan shug'ullanganlarida, ko'chaning haqiga rioya qilganlarida, yosh umrlari xazon bo'lmas edi. Bu bolalar ota-onalarini ranjitib, ularning duolarini olmaganlari, odamlarning haqiga ko'z olaytirganlari sababli shu balolarga uchradilar.

– Kecha maktabdan qaytayotganimizda bir otaxonning yo'ldan o'tolmay turganini ko'rgan bir yigit uning qo'lidan tugunini olib, narigi tamonga o'tkazib qo'ydi. Shunda haligi chol «Umring uzoq bo'lsin, baraka top, o'g'lim. Tarbiya bergan ota-onangga ming rahmat», deb uni uzoq duo qildi, – dedi Said.

– Bunaqa yaxshi odamlar ham juda ko'p, o'g'lim. Yaqinda o'zim guvohi bo'lgan bir voqeani aytib beray. Bir keksa odam bekatda to'xtab turgan avtovusga chiqmoqchi bo'lib, halloslab yugurib keldi-yu, lekin ulgurolmadi, haydovchi uni ko'rmasdan yurib ketdi. Shu payt men o'tirgan yengil mashinaning egasi uning oldida to'xtab: «Sizni avtobusga yetkazib qo'yaman, o'tiring», deya otaxonni o'tirg'izib, oldi. Shunda otaxon: «Parvardigor, meni tanimagan bir bandang yoshimni hurmat qilib, uzog'imni yaqin qilmoqchi. Undan rozi bo'l, turli balolardan O'zing asra, bolalarining rohatini ko'rsin», deb duo qila ketdi.

Ko'rib turganingdek, atrofda gilardan o'zining yaxshiligini ayamaydigan odamlarni hamma duo qiladi, yaxshilik tilaydi. Yurtimizning obodligi, farovonligi osoyishta hayotdan, odamlarning o'zaro totuvligi, oqibatlilikidan boshlanadi. Ko'cha odobi va qoidalarini bilish hamma uchun zarurdir. Endi kiyimlaringni almashtirib, tushlik qilib ol, darslaringni tayyorlab, oying tayinlagan ishlarni bajarib qo'y, – dedi dadasi Saidning boshini silar ekan. Said qo'lini ko'ksiga qo'yganicha, ko'zlari chaqnab:

– Xo'p bo'ladi, dadajon, aytganlaringizni bajaraman, – dedi.



## SAVOB

**B**obo-momolarining tarbiyasini olib, ulardan ko‘p hikoya va nasihat eshitib katta bo‘lgan, yoshligidan savob-u xayrli ishlarni qilishga ko‘nikkan, ustozlaridan astoydil ilm o‘rgangan insonning dunyoqarashi, yurish-turishi, muomalasi go‘zal bo‘ladi.

Salohiddin o‘n yoshda. Akasi Husniddin yigirmaga kirgan, u universitetda o‘qiydi. Salohiddin juda qiziquvchan bola, akasi bilan birga bo‘ldi deguncha, uni savollarga ko‘mib tashlaydi. Akasi ham uning savollariga erinmasdan javob beradi.

– Aka, savob degani nima o‘zi? Savob to‘g‘risida ko‘p eshitganman-u, lekin aniq ma‘nosini bilmayman, – dedi u kechki ovqatdan so‘ng akasi bilan suhbatlashib o‘tirganida.

– Savob – to‘g‘rilik, ezgulik mulohaza va aql bilan ish olib borish ma‘nolarini anglatadi. Barcha qilingan yaxshi va xayrli ishlar savob deyiladi. Savob ishning katta-kichigi yo‘q. Oddiy misol: darsdan keyin sinfxonalarni tozalash, o‘tirgan kursi va stollaringizni artib qo‘yishingiz, yo‘laklarni supurish, chiqindilarni olib tashlash, yo‘lda odamlarga yoki mashinalarga zarar yetkazadigan narsalarni chetga olib qo‘yish kabi ishlarning hammasi savobli ishlardir, – dedi Husniddin.

– Demak, qo‘lidan kelgan katta-yu kichik ezgu ishlarni bajarish savob ekan-da?!

– Xuddi shunday! «Savob ishni katta bo‘lganimda qilaman», demasdan, yoshlikdan qilib borsang, ulg‘ayganingda yanada ko‘proq savob ishlar qilasan.

– Ulug‘ savoblarni faqat boylar qiladimi? Kambag‘allar-chi?

– Savob ishlarni bo-yu kambag‘al, katta-yu kichik – hamma qilaveradi.

– Bizning ko‘p vaqtimiz maktabda, bilim olish bilan o‘tadi. Savobli ishlarni qilishga vaqtimiz kamroq, – dedi Salohiddin o‘ychan ohangda.


– Ilm o‘rganish, o‘rgatish ham juda katta savob ish. Chunki puxta bilim olish uchun ham inson katta kuch-quvvat sarflashi,

irodali, sabrli bo'lishi shart. Yalqovlik, dangasalik kabi yomon odatlar o'quvchilarga xos emas. Kam uxlab, ko'p o'qish kerak. Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Buxoriy kabi ajdodlarimiz ilm olish uchun safar mashaqqatlarini chekib, uzoq o'lkalarga borib, ilm o'rganishgan. Xalqqa, odamlarga foydam tegsin, deb niyat qilishgan. Oliygohlarni tugatgach, o'z ustimizda ishlab, yanada bilimlarimizni oshirishimiz, xalqimizga xizmat qilishimiz katta savobdir, – dedi Husniddin.


– Endi yanada yaxshi o'qishga harakat qilaman, rahmat sizga, akajon!

– Barakalla! Men esa senga ajoyib kitoblar olib beraman.

Akasining bu gapidan Salohiddinning ko'ngli tog'day ko'tarildi.







## OBI HAYOT

Mo‘minjon ota mahalladagi yig‘ilishga chiqdi. Yig‘ilishda shahardan kelgan olim kishi «Suv bu obi hayot» mavzusida ma‘ruza qildi. Ma‘ruzachi: «Ha, suvsiz hayot yo‘q! Suvsiz daraxtlar qurib, hayvonot olamiga qiron keladi. Suv eng ulug‘ ne‘matlardan biridir», deya so‘zlarini davom ettirarkan, jo‘yali misollar keltirdi. Ma‘ruza tinglovchilar ham suv masalasida, uni isrof qilmaslik to‘g‘risida fikr-mulohazalar bildirishdi. Xullas, majlis ko‘tarinki ruhda o‘tdi.

Majlisda eshitganlarini mulohaza qilib, xayollar og‘ushida uyiga kelgan Mo‘minjon otaning ko‘zi nabiralariga tushdi. Ular bir-birlariga suv sepib o‘ynab, hamma joyni shallabbo qilishgandi. Jo‘mrakdan esa sharillab suv otilar, ammo bolalar endi boshqa o‘yin bilan mashg‘ul edilar. Mo‘min ota shoshib borib, suvni to‘xtatdi, keyin nabiralarini oldiga chaqirdi:

– Nega suvni sharillatib, oqizib qo‘ydinglar? – bolalar bobolarining so‘z ohangidan noto‘g‘ri ish qilganlarini tushunib, yerga qarashdi.

– Suvni berkitish esimizdan chiqib qolibdi, uzr bobojon! – dedi bolalardan biri.

– Suvni oqizib qo‘yib, o‘zlarinigiz o‘yinga berilib ketgansizlar. Qancha suv bekorga oqib ketdi. Agar men o‘chirmasam, bilmadim, yana qancha suv isrof bo‘lardi. Bu ishlaringiz gunohligini bilasizlarmi?

– Suvni oqizish ham gunohmi? – dedi katta nabira Bobur ajablanib.

– Oллоh bergan har qanday ne‘matni isrof qilish gunoh, degan gapimni esdan chiqardilaringmi? Qani, orqamdan yuringlar-chi, men sizlarga suv haqida o‘qigan-eshitganlarimni gapirib beraman.

Mo‘minjon ota tokning soyasidagi yog‘och so‘riga borib o‘tirdi, atrofini nabiralari o‘rab olishdi. Hammalari bobolarining og‘ziga tikilib, gap boshlashini kutib turishardi.

– Men hozirgina shahardan kelgan katta olimning suvni isrof qilish yomon oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risidagi ma‘ruzasini




eshitib keldim. Bu haqda sizlarga oldin ham ko'p gapirganman. Lekin yana bir bor nasihat qilishni o'ylab, rejalashtirib keldim-u, suvning sharillab oqib yotganini ustidan chiqdim. Bolalarim, suvning behuda oqib yotishi juda katta isrof. Suvni isrof qilganlarni Oллоh taolo sevmaydi. Shunday yurtlar borki, u yerda suv oltindan ham qimmat turadi. Odamlar suvni sotib olib ichishadi. Afrika davlatlarida odamlar suvsizlikdan sillasi qurib, qiynalib, azob chekishmoqda, sizlar esa bu yerda suvni behuda oqizib qo'yibsizlar. Hamma narsani ishlatishda ham me'yor bor. Ayniqsa, suvni tejabtergab ishlatish lozim.

– Oqib yotgan suvni ham o'lchab ishlatishimiz kerakmi? – dedi Nargiza.

– Xato shunday deb o'ylashdan boshlanadi, – deb dona-dona gapira boshladi Mo'minjon ota. – Daraxtda meva pishib yotibdi deb chala yeb, tashlab yuborsang, daftarlarim ko'p deb pala-partish yozib, to'ldirib-to'ldirmay yangisini tutaversang, suv ko'p deb oqizaversang, bora-bora hech narsani tejamaydigan, qadriga yetmaydigan isrofchi bo'lib qolasan. Men sizlarga hozir bir misol keltiraman. Davlati oshib-toshib yotgan boylardan biri yerda yotgan xurmoni olib, idishdagi xurmolarga qo'shib qo'ydi. Buni ko'rib turganlar: «Mevasi ko'pligidan xurmo daraxtingizning shoxi sinay deyapti-yu, siz esa yerda yotgan bir dona xurmoni olib o'tiribsiz», deyishdi. «Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lar, dona-dona xurmoldan xirmon bo'lur. Balki baraka mana shu to'kilib yotgan xurmodadir», dedi boy.

Boyning so'ziga e'tibor bering, «...Balki baraka mana shu to'kilib yotgan xurmodadir», deyapti. Baraka biz isrof qilib oqizayotgan qatra-qatra suvlardadir. Avvallari biz ariqlardagi suvlarni bemalol ichardik, ovqatga ishlatardik. Hozirgi kunda ba'zi insofsizlar uyidagi oshxona, hammomlarning oqova suvlarini ko'chalaridagi ariqlarga, anhorlarga chiqarib qo'ygan. Ba'zi odamlar suvlarga tashlayotgan axlatlar sababli anhorlardagi baliqlar o'lyapti, o'simliklarga zarar yetyapti, qancha-qancha odamlar kasal bo'lyapti. Ularning bu ishlari ham juda katta gunohdir. Suvni bulg'anishdan,



ifloslanishdan saqlasak, isrof etmasak, har bir qatra suvni tejasak, yig'ilib-yig'ilib, daryo bo'ladi, bolalarim.

– Bobojon, endi suvni isrof qilmaymiz, – deyishdi bolalar bir ovozdand. Bobur biroz o'ylanib turib, keyin dedi:

– Qo'shnimiz Sherali dadasining mashinasini jo'mrakdan suv oqizib qo'yib yuvadi. Oqib tushgan kir suvlar to'g'ri ariqqa tushadi. Sal nariroqda bolalar shu suvga cho'milishadi. Mashinani ichimlik suvini oqizib qo'yib yuvish to'g'rimi?

– Savoling juda o'rinli, bolam. Odamlar ichadigan suv bilan mashina yuvish, uning suvini, mag'zavasini ariqlarga oqizish yaxshi emas. Axir anhor suvlaridan odamlar foydalanadi, hayvonlar ichadi, bolalarimiz cho'milishadi. Ba'zilar turli chiqindi suvlarni suvga oqizishadi, mag'zavalarini suvga to'kishadi, bundan tabiatga, o'zimizga qanchalik zarar yetishini o'ylab ham ko'rishmaydi. Yana suvga tuflash, hojat ushatish ham mumkin emas.

– Oqar suvlarga chiqindilarni tashlayversak, baliqlar kasal bo'lib qolsa kerak-a? – so'radi Bobur.

– Ha, aslo suvga iflos narsalarni tashlamaslik kerak. Mag'zavalarni faqat maxsus qurilgan oqovalarda oqizish kerak.

– Qishloq joyda yashaydiganlar nima qiladi? Ularda maxsus oqib ketadigan oqovalar yo'q-ku!

– To'g'ri savol. Bizning yoshlik paytimizda har bir hovlining bir chetida mag'zava to'kish uchun maxsus qazilgan chuqur bo'lardi. Unga katta-katta tosh tashlab qo'yilardi. Mag'zava ushbu chuqurga quyilganda, toshlar uni filtrlab o'tkazardi. Tozalangan suvni yer shimib ketardi. Chuqur aslo to'lmasdi, hidlanib ham ketmasdi. Qishloqda yashaydiganlar mag'zava uchun alohida, chiqindilar uchun alohida o'ra kovlab qo'yishlari kerak. Chiqindiga to'lgan o'raning ustini tuproq bilan ko'mib, ikkinchi o'ra kovlanadi. Bir yildan so'ng ko'milgan o'ra ochiladi, qarabsizki, o'simliklar uchun mineral o'g'itlar tayyor. Undan o'zi foydalanadi, atrof toza turadi, tabiat musaffo bo'ladi. Bolajonlarim, har doim isrofdan saqlaning, Oллоh taolo bergan ne'matlarga noshukrlik qilmanglar.


– Rahmat sizga, bobojon, ancha narsani o‘rganib oldik, nasihatlaringizga doim amal qilamiz, – dedi qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib Bobur.

Mo‘minjon ota nabiralarini uzoq duo qildi-da, so‘ng:

– Qani, endi hamma ish-ishiga, – dedi.

Chug‘urlashib, bir-birlariga savol berayotgan, nimalarnidir ma‘qullab ta‘kidlayotgan bolalarga qarab turgan Mo‘minjon ota yana duo qildi: «Ilohim, baxtli bo‘linglar».







## VAQT QADRI

Abduxoliq maktabdan keldi-yu, bo'shashib xonasiga kirib ketdi. Uning ahvolini ko'rgan oyisi:

– O'g'lim, senga nima bo'ldi? Istimg bormi? – deb peshonasiga qo'lini qo'ydi.

– Oyijon, soppa-sog'man. Faqat juda charchadim, ozgina uxlasam maylimi? – dedi.

– Mayli, uxlab, dam ol, bolam, – dedi oyisi.

Abduxoliq xonasiga kirib, kiyimlarini ham yechmasdan, o'rni-ga cho'zildi. Qotib uxlab qolgan ekan, shomga yaqin dadasining ovoizidan cho'chib uyg'onib ketdi.

– Tinchlikmi, o'g'lim, shomda uxlab qolibsani? Sening bunaqa odating yo'q edi-ku?


– Tinchlik, kecha kechqurun o'n ikkigacha televizor ko'rgandim, shungami, darsda o'tirganimda ham uyqim kelaverdi, – dedi uyalganidan yerga qarab.

– Yuz-qo'llaringni yuv, oying ovqat suzib, bizni kutib o'tiribdi, tez chiq, – dedi dadasi jiddiy ohangda. Abduxoliq yuz-qo'llarini yuvdi-da, dasturxon atrofida qilarga salom berib, har kungi joyiga o'tirdi. U har kuni maktabdan qaytgach, uy yumushlariga yordam berardi. Bugun onasining ishlariga ko'maklasha olmagan uchun xijolatda. Taomni yeb bo'lishgach, otasi u yoq, bu yoqdan gapirib turib:

– Senga vaqtni g'animat bilish, uni to'g'ri taqsimlab, unumli foydalanish to'g'risida oldin gapirganmidim? – deb so'radi.

– Gapirgansiz, yana eshitaveraman, – dedi sekingina o'zini aybdor his qilib turgan Abduxoliq.

– Ilm olish, mehnat qilish juda muhim. Ammo vaqtida dam olish, uxlash ham zarur ekanini esdan chiqarmagin. Vaqtida o'qib, vaqtida uxlamasang, o'z jismingga zulm qilgan bo'lasan. Vaqtning zoze ketsa, dangasa bo'lib qolasan. Ayniqsa, shom vaqti yotish qarzdorlikka sababchi bo'lsa, tongdagi uyqu rizqni kamaytiradi. Kechasi allamahalgacha uxlamasdan, televizorga tikilib o'tirgan odam ertalab turishi qiyin



bo'ladi, lanj bo'lib uyg'onadi. Ishining unumi bo'lmaydi. O'zini majburlab maktabga boradi, darsga tushunmaydi, boshi og'riydi. Tezroq dars tugasa-yu, uyga borib uxlasam, deydi. Bu – maktabdagi vaqting ham samarasiz ketdi, degani. Erta yotib, erta turishning afzalliklari juda ko'p. Uxlash, dam olishning ham o'z tartibi, qoidalari bor.

– O'sha tartib-qoidalarni aytib bering, – dedi Abduxoliq.

– Yaxshi, oldin senga zararli uyqu, so'ngra foydali uyqu to'g'risida gapirib beraman.

Birinchi, g'aflat uyqusi. Tongdagi uyqu g'aflat uyqusi bo'ladi. Rivoyat qilinadiki, tongda yaxshilik, odob va baraka taqsimlanarkan. Kim tong otayotganda uxlasa, yuqorida aytilgan uch narsadan mahrum bo'larkan.

Ikkinchi, quyosh botishidan oldingi uyqu. Bu paytda quyoshdan qandaydir zararli nurlar tarqalar ekan. Bu devonalik, parishonxotirlik va telbalikka sabab bo'lishi mumkin.

Uchinchi, tongdan kun chiqquncha uxlab yotish kambag'alikka, devonalikka va qarzdorlikka sabab bo'larkan.

To'rtinchi, quyosh botishi bilan uxlash afsus-nadomat keltirarkan.

– Mana bugun sen tongda uxladings, o'qishdan kelib, shomgacha uxladings. Qancha narsa yo'qotganingni o'ylab ko'rdingmi?

– To'g'ri, bugungi rejalashtirgan hamma ishlarim qolib ketdi. Kecha kechqurun vaqtida uxlamaganimdan afsusdaman. Buning uchun sizdan, oyimdan uzr so'rayman.

– Yana shifokorlar qorinni yerga qilib uxlashdan, kechasi chiroq yoqib uxlashdan, bir kunda sakkiz soatdan ko'p uxlashdan, yelvizakda, zax yerda, ovqatdan so'ng tezda uxlashga yotishdan qaytarishadi.

Mana shu aytgan gaplarimga amal qilsang, bardam-sog'lom yurasan, ishing barakali, rizqing mo'l, ilming ko'p bo'ladi. Yaxshi farzand eshitgan va o'qiganlariga amal qiladigan qat'iyatli inson bo'lishi, so'zining ustida turishi, va'dasini buzmasligi kerak. Doim aql bilan ish yuritishi lozim. Nasihatlarimni hech qachon

yodingdan chiqarmagin, – dedi dadasi uning ko‘zlariga qarab. Abduxoliq yerga tikilganча:

– Bundan keyin aytganlaringizning hammasiga amal qilishga harakat qilaman, – dedi.

– Endi dasturxonga duo qilamiz. Bizlarga turli ne‘matlar bergan, shunday go‘zal yurtda tug‘ilib-o‘shish, tinchlik-xotirjamlikda yashash baxtini bergan Olloh taologa cheksiz shukrlarimiz bo‘lsin. O‘g‘lim Abduxoliqqa va hamma yoshlarimizga uzoq umr, baxt-saodat bersin.

Abduxoliq o‘zgacha bir kayfiyatda darsxonasiga kirib, darslarini tayyorlashga kirishdi.





## RUXSAT SO'RASH

Salohiddin ota nabiralari bilan hovlida suhbatlashib o'tirgan edi, darvoza ochilib, qo'shnisining o'g'li Sherali ko'rindi. U indamasdan kirib keldi-da, salom ham bermasdan, ularning suhbatiga qo'shildi. Salohiddin ota unga ma'noli qarab qo'ydi. Bu qarashdan hech narsani tushunmagan Sherali hech narsa bo'lmagandek o'tiraverdi. Salohiddin ota uni xijolat qilmaslik uchun nabiralarga turli voqealarni so'zlab berdi. So'ng a'lo baholarga o'qiydigan, gapga chechan nabirasiga qarab:

– Sizlardan bir narsani so'ramoqchi edim. Aytaylik, maktabda darsga kech qoldingiz, sinfga qanday kirasiz? Qani, Madina, nima deysan? – dedi.

– Men, avvalo, darsga kechikmaslikka harakat qilaman, qo'ng'iroq chalinishi bilan sinfimga kirib, kitob, daftarlarimni tayyorlab, ustozning kirishini kutaman. Mabodo, darsga kech qolsam, eshikni taqillatib, ichkariga kirishga ruxsat so'rayman, agar ruxsat bo'lsa, ustozimga salom berib, kechikishimning sababini aytib, uzr so'rab, joyimga borib o'tiraman, – dedi.

– Barakalla, qizim, sening bu ishing juda to'g'ri, – dedi mamnun bo'lgan ota.

– Sen-chi, Abdulloh, do'stingnikiga dars qilgani borsang, uni qanday chaqirasan?

– Do'stimning uyining qo'ng'irog'ini chalaman, ichkaridan kirishga ruxsat bo'lsa, kiraman. Do'stimning ota-onalari bo'lsa, salom beraman.

– Ota-onalari bo'lmasa-chi?

– Indamasdan kiraveraman, axir u do'stim-ku! Har kuni ko'rishib turamiz. Yoki unga ham salom berishim kerakmi? – dedi ikkilanib Abdulloh.

– Albatta, salom berishing kerak. Salom berishda katta-kichikka, do'st-u begonaga qaralmaydi. Sen do'sting bilan xayrlashib, uyga ketgansan. Oradan bir-ikki soat o'tib, borganingda salom berishing shart. Salom berish, alik olish

ham ulkan madaniyat hisoblanadi. Bolalarim, har bir ishning o'z qonun-qoidasi, odob-axloqi bor. Bularni qanchalik bilishi, amal qilishiga qarab, odamning madaniyatini, tarbiyasini bilib olsa bo'ladi. Ba'zilar madaniyat deganda chiroyli kiyim, shinam uy, zo'r mashinada yurishni tushunadi. Aslida, haqiqiy madaniyat insonning muomalasi, ko'pchilik orasida o'zini tutishi, yurish-turishi, ustozlarga, ota-onasi, keksalarga, o'zidan kichiklarga izzat-hurmatida ko'rinadi. O'zgalarning hovlisi, uyi, xonasiga kirish uchun ruxsat so'rash ham madaniyatdir.

– Unda bizga ruxsat so'rash qoidalari to'g'risida gapirib bering, bobojon! – dedi kichkina Yosin.

– Aytganlaringizga amal qilib, sizga kattakon rahmat olib kelamiz, – dedi Fotima.

– Unda diqqat bilan quloq solinglar! Bizning ota-bobolarimiz dunyo xalqlari havas qiladigan chiroyli, ajoyib odob-axloqni meros qoldirganlar. Hozir sizlarga o'z uyiga kirishda, begonalarinikiga ruxsat so'rashda, salomlashishda qanday odob qoidalari borligi to'g'risida tushuntirib beraman. Bu haqda ko'plab kitoblar bitilgan. Avvalo, birovning uyiga ruxsatsiz kirish mumkin emas. Kirishga ruxsat so'rashdan oldin «Assalomu alaykum, kirsam maylimi?» deb so'rash kerak. Ruxsat bersa kiriladi bo'lmasa yo'q. Kitoblarimizda: «Uch marta ruxsat so'raladi, ichkaridan hech kim javob bermasa, qaytib ketiladi», deb yozilgan.

– Demak, o'z uyingizdan boshqa uyga kirmoqchi bo'lsangiz, avval salom berib, ruxsat berilgandan keyin kiring, demoqchisiz, to'g'rimi? – dedi eshitganlarini aniqlashtirish maqsadida Fotima.

– Xuddi shunday, shirin qizim. Mana Abdulloh har kuni ko'rishib turgani uchun do'stiga salom berish shart emas, deb o'ylarkan. Aslida, oradan qancha vaqt o'tsa ham, har bir ko'rgan odamiga, u do'sti bo'ladimi, begona bo'ladimi, hammaga aytiladigan birinchi so'z «Assalomu alaykum» bo'lishi kerak. Bu go'zal odobdir. Bu bilan oradagi do'stlik yanada mustahkamlanadi.

– O'z uyimizda ota-onamizning xonasiga kirishda ham izn so'rashimiz kerakmi?

– Albatta. Ota-onaning yotog‘iga izn so‘rab kirish ham eng katta odobga kiradi. Opa-singlingizning xonasiga ham to‘g‘ri bostirib kirib bormang. Ruxsat bersa kirasiz, bo‘lmasa yo‘q. Agar «Kirmagin», desa, xafa bo‘lmasligimiz kerak.

Salohiddin ota biroz o‘ylanib qoldi-da, keyin muhim gap yodiga tushgandek, bolalarga yuzlandi:

– Yana shuni bilishingiz kerakki, eshikning ro‘parasida turib taqillatish ham noto‘g‘ri.

– Nimaga? – dedi Sherali.

– Hozir shuni tushuntiraman-da. Taqillatayotganda, eshikning chap yoki o‘ng tomonida turing, toki eshik ochilganda xonadon ichiga ko‘zingiz tushmasin. Chunki xonadon egasi dam olayotgan holatda bo‘lishi, uyi yig‘ishtirilmagan va shu kabi odamni noqulay ahvolga soladigan holatlar bo‘lishi mumkin. Agar sening ko‘zing o‘sha narsalarga tushsa, xijolat chekishlari, uyalishlari mumkin. Bizning bobolaramiz va onajonlarimiz ham ushbu odob qoidalariga rioya qilishgan, sizlar buni yaxshi bilishlaringiz kerak.

– Bobojon, meni kechiring, men hozir salom bermasdan, ruxsat so‘ramasdan kirib kelibman. Endi bilib oldim, bundan keyin hech qayerga ruxsatsiz kirmayman, – dedi yerga qarab Sherali.

– Barakalla, o‘g‘lim! Sen xatosini tan olib, uni to‘g‘rilashga intiladigan haqiqiy mard bola ekansan. Ishqilib, mening gaplarimdan zerikib qolmadinglarmi?

– Yo‘-o‘q, – deb baravariga javob berishdi bolalar. – Biz sizni judayam yaxshi ko‘ramiz.

Bobosining maroqli suhbatidan xursand bo‘lgan bolalar ruxsat olib, ko‘chaga chopishdi. Ularni mehr bilan kuzatarkan, otaning dilidan «Ilohim, ularni to‘g‘ri yo‘lingdan adashtirmagin», degan tilak o‘tdi. O‘zining bolalik yillarini eslab, jilmayib qo‘ydi.



## POKLIK

Sobirjon yumshoq tabiatli, bolajon odam. Kichkintoylarni juda yaxshi ko‘radi, ularni hech urishmaydi. Shu sabab qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari ham ko‘pincha ularnikiga yig‘ilib o‘ynashadi. Ularni har kuni ko‘raveriganidan, hammasining ismlarini, fe‘l-atvorlarini besh qo‘lday biladi. Goho ularni o‘ynatadi, ertak, hikoyalar ham aytib beradi. Lekin oxirgi kunlarda qo‘shnisining kenja o‘g‘li Abdurauf ko‘rinmay qoldi. U bolalaridan:

– Abdurauf ko‘rinmay qoldi? – deb so‘radi.

– Dada, u kasal bo‘lib, shifoxonaga tushib qopti, – dedi o‘g‘li Islom.

– Iye, unday bo‘lsa, kasalxonaga borib, uni ko‘rib kelish kerak ekan-ku, savob bo‘ladi. Abduraufning ota-onasidan qaysi shifoxonada yotganini bilib kelinglar. Keyin birgalashib borib kelamiz.

Bu gap bolalarga rosa yoqib tushdi. Ular chug‘urlashib:

– Hozir bilib chiqamiz, – degan cha yugurib, ko‘chaga chiqib ketishdi. Lekin sal o‘tmay, kayfiyatlari tushib, qaytib kirishdi.

– Abduraufning oldiga borish mumkin emas ekan, – dedi dadasining oldiga kelib Islom.

– Nimaga? – deb Sobirjon hayron bo‘lib turgan edi, tashqaridan «Qo‘shni!» degan ovoz eshitildi. So‘ng Abduraufning bobosi ko‘rindi.

– Assalomu alaykum, kelavering, Akbar ota, kelavering, – deya Sobirjon otaga peshvoz chiqdi.

– Va alaykum assalom! Yaxshimisiz, bola-chaqalar tinchmi? Bolalar juda savob ishni maqsad qilishgan ekan-u, ammo do‘xtirlar iloji boricha nabiramni bezovta qilmaslikni tayinlashyapti, – dedi Akbar ota salom-alikdan keyin. – Yuvilmagan meva-cheva yeb qo‘yganmi, qorni og‘rib qoldi. Do‘xtirlar «Kasali yuqumli», deyishyapti. Shuning uchun bolalarni uning oldiga kirg‘izmasa kerak.


– Yomon bo‘pti-ku, – dedi achinib Sobirjon. – Ishqilib, hozir yaxshimi?



+



=



– Ha, og‘riqlari o‘tib ketdi, lekin hali dori-darmon qilishyapti, chunki ancha kuch-quvvati ketdi. Bolalarim, sizlar ehtiyot bo‘linglar. Meva-chevalarni yuvmasdan yemang, yuvilmagan qo‘l bilan yoki yo‘l-yo‘lakay, duch kelgan narsani og‘zingizga solmang, – deb nasihat qilib, biroz o‘tirgach, Sobirjondan ruxsat olgan Akbar ota bir-bir yurib, chiqib ketdi. Otaning horg‘in ko‘rinishi ta‘sir qildimi yoki o‘rtoqlari Abduraufni o‘ylabmi, bolalar yuvosh, o‘ychan bo‘lib qolishdi.

– Eshitdilaringmi, – dedi Sobirjon ularga qarab. – Juda ko‘p kasalliklarning kelib chiqishiga ozodalikka rioya qilmaslik, yuvilmagan yoki aynigan narsalarni yeyish sabab bo‘ladi.

– Qorni og‘rib qoladi-a? – dedi jajji Muslima.

– Ha, qorni og‘rib qoladi. Kir qo‘l bilan ishqalasa, ko‘z og‘riydi, shilingan joy toza saqlanmasa yiringlab katta yaraga aylanishi mumkin.

– Mening oyim do‘xtirlar-ku, – Sobirjonning gapini bo‘ldi yana bir bola. – Yaqinda oldilariga hali bir yoshgayam kirmagan bolani olib kelishibdi. Ko‘p kasal bo‘larkan, o‘zi ham yaxshi o‘smabdi. Sababini bilsalar, u bolaning ota-onasi tozalikka e‘tibor berishmas ekan. Erta tongda derazalarni ochib, xonalarni shamollatmas, qalin pardalarni osib tashlashgani uchun uylariga quyosh nuri hech tushmas ekan. Bolasini cho‘miltirmas ekan. Shuning uchun u kasal bo‘p qopti.

– Uyni shamollatmasa ham odam kasal bo‘larkanmi? – dedi hayron bo‘lib Qamariddin.

– Ha-a, oyijonim aytdilar, uyni shamollatmasdan, qop-qorong‘i qilib qo‘ysa, quyosh nuri tushmasa, har xil hasharotlar paydo bo‘larkan. Ular odamni chaqib, kasal qilarkan.

– Bolalar, hamma narsa poklikka bog‘liq. Qayerda nopoklik bo‘lsa, o‘sha yerga turli kasalliklar tarqatadigan yovuz mikroblar o‘rnashib oladi. Ular ko‘paygach, odamning ichiga kirib oladi, oziq-ovqatlarga ilashib, kasallik tarqatadi. Shuning uchun kiyimlaringizni toza tutishingiz, qo‘l-oyoqlaringizni, tishlaringizni doim tozalab yuvib turishingiz kerak. Ovqat yeb bo‘lgach, iliq suvda qo‘llarni sovunlab yuvish lozim. Kosa-piyolalarni, qozon-qoshiqlarni

yuvib, artib, ustini yopib yoki yopiq joylarda saqlash kerak. Ozoda yursangiz, kasal bo'lmaysiz, uzoq umr ko'rasiz. Turli mikroblar ham toza, oppoq bo'lib yurgan bolani ko'rsa, qo'rqib, qochib ketadi.

Bolalar bu gapdan zavqlanib kulib yuborishdi.

– Burchak-burchaklarga yashirinib olgan mikroblarni o'ldirish, yo'qotish uchun hovlilar, uylar ham toza bo'lishi kerak ekan-da? Shuning uchun oyim har doim «Uylarni tozalab supuringlar, idish tovoqlarni yaxshilab yuvinglar», deb tergab turarkanlar-da, – dedi Aziza.

– Ha, uylarimiz toza, ozoda bo'lishi kerak. Shunda orom topamiz, xotirjam bo'lamiz. Uy – insonlar hordiq chiqarib, dam oladigan, rohatlanib yashaydigan, huzurlanib uxlaydigan joydir. Uyingiz toza-ozoda bo'lsa, ko'rpa-to'shak, choyshablar oppoq bo'lsa, rohatlanib uxlaysizlar.



Hovlingiz atrofida rang-barang gullar o'sib tursa, hovli yanada fayzli, havosi toza bo'ladi. Ularni ko'rganda ko'zlaringiz yashnaydi. Kirgan-ko'rgan odam, albatta, rahmat aytadi.

Toza joyda burqa, bit kabi chaqadigan hasharotlar ham bo'lmaydi. Uyingizning atroflari axlatlarga to'lib-toshsa, ularni supurib-sidirib olib tashlamasangiz, farishtalar qochib ketadi. Chunki farishtalar nihoyatda pokiza bo'ladi, ular pok joylarda bizlarga yetadigan balolarni qaytarib turadi. Iflos joyni ko'rganda insonning tabiati, kayfiyati buziladi.

Tez-tez yuvinib turilsa, tana yayraydi. Agar siz doimo yuvinib-taranib yursangiz, atrofingizni farishtalar o'rab, yomonliklardan himoya qilib turadi. Nopok yurgan insonga turli balolar yopishaveradi. Ana shunaqa, bizga oddiy ko'ringan narsalarda ham juda katta hikmatlar bor. Menimcha, oralaringizda qo'l-oyoqlarining tirnoqlari o'sib yuradiganlar bo'lmasa kerak-a?

– Oyim mening tirnoqlarimni tekshiraveradilar, tekshiraveradilar, – dedi Qamariddin. – Ozigina o'sishi bilan olib tashlaydilar.

– Eng yomoni shuki, kasalliklarni tarqatadigan mikroblar tirnoqlarning tagiga berkinib olarkan, agar olib tashlanmasa, ovqat bilan birga odamning ichiga kirib olarkan, to'g'rimi?



– Gaping juda to‘g‘ri, – deb Azizaning boshini siladi Sobirjon. – Ba‘zi kichkina bolalarning barmoqlarini, tirnoqlarini so‘rish odatlari bor. Bu odatni darrov yo‘qotish kerak.


– Oyim har kuni yotishdan oldin oyog‘imizni yuvdiradilar – dedi Qamariddin.



– Mening oyim ham! – deb chuvullashdi bolalar.

– To‘g‘ri qilishadi, – dedi Sobirjon. – Chunki yerda yurgani uchun odamning oyog‘i tez kir bo‘ladi, oyoq kiyimining ichida terlab, hidlanib qolishi mumkin. Hidlangan oyoq bilan odamlarning ichiga kirsangiz, ularning ta‘bini, uyning havosini buzasiz. Oyoqni ko‘chadan kelganda uyga kirmasdan oldin yuvish kerak. Qisqasi, odam o‘z sog‘lig‘ini muhofaza qilishi, o‘zgalarga ozor yetkazadigan narsalardan saqlanib, o‘zini asrab yurishi kerak. Ozoda, aqlli bolalar hammaga o‘rnak bo‘lishi lozim. Sizlarga gaplarim yoqdimi? Aytganlarimni bajarish qiyin emasmi?

Bolalar bir ovozdan «Yo‘q», deb javob berishdi.

Bu suhbatdan ko‘ngillari to‘lgani bolalarning yuz-ko‘zlaridan ko‘rinib turardi.





## YAXSHI BOLA YOLG'ON GAPIRMAYDI

Yolg'on gapirmaslik, aldanchilik, ko'zbo'yamachilik kabi ishlardan o'zini tiyish aqlli farzandning go'zal odoblaridan biridir.

Bahodirning uyiga muallimi telefon qilib qoldi:

– Assalomu alaykum! Bugun Bahodir nima sababdan darsga kelmaganini bilmoqchi edim. Tinchlikmi, o'zi sog'-salomatmi?

Oyisi xavotirga tushdi, chunki Bahodir ertalab nonushta qilib, maktabga chiqib ketgandi. «Yo'lda biron kor-hol bo'ldimikan? Sog'mikan? Shu paytgacha qayerda yurgan ekan?» Onaning yuragini vahima bosdi, uyga kirdi, ko'chaga chiqdi. Yaqin o'rtog'inikiga qo'ng'iroq qilgan edi, «Akam mattabda tetanlar», degan javobni oldi. Vaqt o'tgani sayin onaning yuragidagi vahima qo'rquvga aylanib borardi. Nihoyat, Bahodir har kungi maktabdan qaytadigan vaqtida bamaylixotir kirib keldi. Uni sog'-salomat ko'rgan oyisi quvonib: «Xudoga shukr», deb qo'ydi. Lekin Bahodir hech narsa bo'lmaganday:

– Assalamu alaykum, oyijon! – dedi.

– Va alaykum assalom, yaxshi keldingmi, o'g'lim? – dedi oyisi. «Qorni och bolani urishmayin. Avval choy ichib olsin, so'ng sekin gaplashaman», degan xayol dilidan o'tdi uning.

– Yaxshi keldim, – dedi Bahodir ko'zlari jovdirab.

– Kiyimlaringni almashtirib chiq, tushlik qilamiz, – dedi oyisi muloyimlik bilan. Nimadandir xursand Bahodir xirgoyi qilib, ichkariga kirib ketdi. Oyisi ayvondagi xontaxtaga ovqat, choy, meva-chevalarni qo'ydi. Ichkaridan chiqqan Bahodir qo'lini yuvib, dasturxonga o'tirdi-da, ishtaha bilan shoshib ovqatlana boshladi. Juda charchagan odamday, devorga suyandi.

– O'qishlaring yaxshimi, bugun nima dars bo'ldi? – dedi hech narsa bilmagandek oyisi.

– Bunday savolni kutmagan ekanmi, Bahodir avvaliga ikkilanib turdi-da, keyin sharillatib sanay boshladi:

– Ona tili, adabiyot, odobnoma, tarix, matematika.





– Qani, bo‘lmasa ona tili daftaringni olib kel-chi, nimalar yozgan ekansizlar? Men ham o‘qib ko‘ray, – dedi. Bahodir peshonasini tirishtirgancha turib qoldi. So‘ngra birdan yo‘lini topgandek:

– Oyijon, o‘qimoqchi bo‘lsangiz, mana bu kitobda juda qiziq hikoyalar bor, – deb sumkasidan «Odobnoma» kitobini olib berdi. Oyisi kitobni sekin varaqlab, odob-axloqqa doir donishmandlar so‘zlari keltirilgan sahifani ochdi. O‘g‘lidan ana shu sahifada yozilganlarni o‘qib berishini so‘radi. U kitobidagi bir sahifani ochib, ikkiyuzlamachilik va yolg‘onchilik haqidagi matnni o‘qib berdi. Shunda oyisi Bahodirning yuziga sinchiklab qaradi-da:

– O‘g‘lim, ikkiyuzlamachi deb qanday odamlarni aytishadi? – dedi. Keyin uning javob berishini ham kutmasdan, so‘zida davom etdi: – Odamlar orasida shundaylar bo‘ladiki, dilozor, bezori va gunohkor sheriklari bilan yurganda, ularga o‘xshab yomon ishlarni qiladi. Yaxshi odamlarning ichida o‘zini yaxshi ko‘rsatishga urinadi.

– Ikkiyuzlamachi eng yomon odam ekan-da?

– Albatta, bunday odamlar bir odamga boshqa gapni aytadi, boshqasiga yana boshqacha gapiradi. Shunday qilib, ikki o‘rtada kelishmovchilik va janjal chiqadi! Ko‘ryapsanmi, ham yolg‘on gapirgani uchun, ham odamlar orasini buzgani uchun gunohkor bo‘ladi.

– Yolg‘onchilik ham katta gunohmi?

– Albatta! Sotuvchining tarozidan urishi, sotayotgan molining aybini berkitib, uni maqtashi, odamlarni aldab, mollarini va boshqa narsalarini o‘zlashtirishi, birovdan qarz olib, aldab ketishi, va‘da berib, qasddan va‘dasida turmasligi ham yolg‘onchilikka kiradi. Ba‘zi bolalar ota-onasiga, ustozlariga yolg‘on gapirishdan ham toymaydi.

– «Yolg‘onning qirq yilda bo‘lsayam qiyig‘i chiqadi», degan maqol bor. Shuning uchun aslo yolg‘on gapirmaslik kerak!– dedi oyisi Bahodirning ko‘zlariga tikilib.

– Oyi, meni kechiring, bugun katta gunoh qildim, – dedi yuzlari qizarib ketgan Bahodir past ovozda.

– Nima gunoh qilding, ustozingni xafa qildingmi yoki biror sinfdoshing bilan urishdingmi?

– Yo‘q, yolg‘on gapirdim! Bugun maktabga bormasdan, ovqatlanish uchun bergan pulingizga kompyuterxonaga kirib o‘yin o‘ynagan edim. Men sizga yolg‘on gapirdim, kechiring, oyijon! Ikkinchi bunday qilmayman.

– Mana ko‘rdingmi, o‘g‘lim, yolg‘oning bir kundayoq fosh bo‘ldi. Darsga bormay, ustozingniyam, meniyam rosa xavotirga qo‘yding. Bundan keyin hech qachon yolg‘on gapirma! Chunki yolg‘onchi bo‘lsang, bora-bora odamlar rost so‘zlaringga ham ishonmay qo‘yishadi. Natijada obro‘yingni yo‘qotasang, «yolg‘onchi» degan nom olasan, odamlar sendan uzoqroq yuradigan bo‘lishadi. Ota-onangni, do‘stlaringni aldasang, ustozlaringga yolg‘on gapirsang, oxiri nima bo‘ladi?



Bahodir yalt etib oyisiga qaradi. Uning ko‘zlarida «Nima bo‘ladi?» degan savol aks etardi:

– Katta bo‘lganingda ishlaring yurishmaydi, hech kim seni hurmat qilmaydi, odamlarning nazaridan qolasan, uyingda baraka bo‘lmaydi. «Bir qilgan ikki qilar, ikki qilgan odat qilar», degan maqol bor. Irodali bo‘lib, so‘zingda tur. Chunki bir marta yolg‘on gapirsang, yana gapirging keladi, ikki marta gapirsang, odatlanib, yolg‘onchi bo‘lib qolasan. Dadang va mening yuzimizni yerga qaratma, biz sendan faxrlanaylik. Aqling, odobing bilan yurtimizning eng yaxshi farzandlari qatorida bo‘l! Ana shunda hamma sendan rozi bo‘ladi, bolajonim!

– Oyijon, endi hecham yolg‘on gapirmayman, yomon ish qilmayman, – dedi ko‘zlari chaqnab Bahodir.

– Ertaga ustozingdan uzr so‘ra, xo‘pmi? – dedi o‘g‘lining javobidan ko‘ngli sal xotirjam tortgan oyisi.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi Bahodir. Uning ko‘nglidagi g‘ashlik tarqalib, o‘zini qushdek yengil his qilardi.



## AQLLI BOLA

Har doim keksalarni, donishmand va olimlarni chaqirib, duolarini olib, ziyofat berib turadigan bir kishining uyiga yana mehmonlar to‘planishdi. Ziyofatda keksa olim ham bor edi. Ziyofat so‘ngida u:

– Azizlar, bizlar keksaydik, umrimiz o‘tib bormoqda. Bizdagi ilmlardan foydalanib qoling, bilmaganlaringizni so‘rang, qo‘limdan kelganicha javob beray, – dedi. Hamma jim, savol berishga hech kim botinolmay turgan edi, dahlizda o‘tirganlar ichidan o‘n yoshlardagi bir bola qo‘li ko‘ksida, go‘zal odob bilan:

– Hazrat! Aybga buyurmasangiz, kaminaning kichik bir savoli bor, – dedi.

– Barakalla, bolam, savolingizni tortinmasdan so‘rayvering, – dedi olim bolaning aql-u odobiga tasanno aytib.

Keksalikka yetib, aziz-u mukarram bo‘lish uchun nima qilishim kerak? – dedi bola boshini xiyol egib.

– Barakalla, o‘g‘lim! Dono savol berdingiz. Bu savolga tonggacha javob bersam ham, oxiriga yetib bo‘lmaydi, javobi tugamaydi. Shunday bo‘lsa-da, qisqagina javob beraman, – deb bir-oz o‘ylanib qoldi olim. So‘ng javob berdi: – Keksalikka yetib, aziz-u mukarram bo‘lish uchun ota-onangizning xizmatini qilib, duo va olqishini oling, qarindoshlar bilan bordi-keldi aloqalarini uzming, olim va yaxshi insonlarning duosini oling. Shunda keksalikka yetasiz, xalq ichida obro‘ topasiz hamda aziz-u mukarram bo‘lasiz.

## KO'P DUO OLAMAN!

Sakkiz yoshlik Zohirxo'ja bobosiga:

– Bobojon, men bozorga bormoqchiman, – dedi.

– Bozorda nima qilmoqchisan, o'g'lim? – dedi bobosi mehri kelib.

– Duo olib kelmoqchiman!

– Duo?

– Ha, bobojon!

– Bozorda duo borakanmi? Kim aytdi buni.

– O'zingiz aytagiz-ku, «Ko'pni duosini ol» deb.

Kecha dadam bozorda odam ko'p ekan, oyoq bosishga joy yo'q, dedi. Shunga ko'pni duosini olib kelayin...

Boboning mehri iyib ketdi.

– Yur o'g'lim, men ham sen bilan boraman. Bobo va nabira bozorga jo'nadilar.



## MUNDARIJA

Ahil oila.....	3
Xayrli ish.....	10
Odobi oltin bola.....	17
Kamsitishdan saqlan!.....	24
Yo‘l odobi.....	28
Savob.....	38
Obi hayot.....	41
Vaqt qadri.....	48
Ruxsat so‘rash.....	53
Poklik.....	56
Yaxshi bola yolg‘on gapirmaydi.....	63
Aqlli bola.....	68
Ko‘p duo olaman.....	69



*Adabiy-badiiy nashr*

**Shermurod Tog‘ay**

**ODOBI OLTIN BOLA**

*Bolalar uchun ibratli hikoyalar*

Muharrir *V. Ahmad*  
Badiiy muharrir *I. Yo‘ldoshev*  
Texnik muharrir *T. Xaritonova*  
Musahhah *I. Umarova*  
Sahifalovchi *U. Valijonova*







Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016.  
2020-yil 7-iyulda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub>, Arial garniturası. Keglı 14. Ofset bosma.  
8,3 shartlı bosma taboq. 4,9 nashr tabog'i.  
Adadi 5000 nusxa. 153 - raqamli buyurtma.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi.  
100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

*Telefon: (371) 241-25-24, 241-83-29*

*Faks: (371) 241-82-69*

**www.gglit.uz info@gglit.uz**

# ODOBI OLTIN BOLA



6+



ISBN 978-9943-6110-5-4

